



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-110-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida 2023-yilda shakllantirilgan mehnat balansi va bandlik dasturi ijrosi haqida tuman hokimining birinchi o`rribosari - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag`allikni qisqartirish bo`limi boshlig`ining hisoboti to`g`risida

Tuman hokimining birinchi o`rribosari O.Muratovning Angor tumanida 2023-yilda shakllantirilgan mehnat balansi va bandlik dasturining joriy yil 1-chorak yakuni bo`yicha ijrosi haqidagi hisoboti eshitilib, masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o`rribosari O.Muratovning Angor tumanida 2023-yilda shakllantirilgan mehnat balansi va bandlik dasturining joriy yil 1-chorak yakuni bo`yicha ijrosi haqidagi hisoboti ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo`yicha o`rribosarlari, tuman tashkilot va korxona rahbarlariga:

- dasturda belgilangan barcha yo`nalishlarni ayniqsa qurilish, sog`liqni saqlash sohalari bo`yicha ijrosini ta`minlash hamda yangi ish o`rinlari yaratilishi orqali aholi bandligini ta`minlash choralarini ko`rish;

- xizmat ko`rsatish dasturida amalga oshirilishi belgilangan topshiriqlarning ijrosi hamda ushbu dasturga asosan amalga oshiriladigan loyihalarda yaratiladigan yangi ish o`rinlarini tashkil etsin.

3. Tuman qurilish bo`limi va Kadastr agentligi tuman bo`limi xizmatlar ko`rsatish va servis loyihalarini tashkil etish maqsadida mahallalarda aniqlangan bo`sh yer maydonlarini belgilangan tartibda elektron auksion savdolariga chiqarish choralarini ko`rsin.

4. Tuman sektor rahbarlari va tuman hokimining birinchi va tarmoqlar bo`yicha

o‘rnbosarlari Dasturda belgilangan vazifalar (maqsadli ko‘rsatkichlar) ijrosini o‘z vaqtida, tizimli va sifatli ta’minlanishiga mas’ul ekanliklari alohida belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov), bilan birgalikda tumanda yangi yaratilgan ish o‘rinlarini soliq bazasi bilan tahlil qilib, amalda yaratilgan ish o‘rinlari yuzasidan, shuningdek, o‘zini-o‘zi band qilish va ish o‘rinlarini legallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har oyning yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot taqdim etib borsinlar.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov